

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**APREL, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiyalar.com>





# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Valijonova Shaxzoda*

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN  
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH ..... 6-9

*Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon*

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK  
MOSLASHTIRISH ALGORITMI ..... 10-15

*Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza*

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA  
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA  
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI ..... 16-19

### IQTISODIYOT FANLARI

*G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon*

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA  
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI ..... 20-24

### FALSAFA FANLARI

*Парниева Айгуль*

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО  
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И  
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ ..... 25-30

### FILOLOGIYA FANLARI

*Tursunova Farangiz*

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI  
JIHATLARI ..... 31-33

*Jo'rayeva Nozimaxon*

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK  
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK ..... 34-38

*Inatova Jasmina*

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI ..... 39-42

*Mavjudboyeva Mardona*

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI ..... 43-47

*Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma*

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY  
KONTEKSTDA ..... 48-50

*Xamidova Go'zal*

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI ..... 51-53

*Adasheva Durdona*

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI ..... 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA) .....	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY .....	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE .....	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI .....	72-77
<b>YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS .....	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR .....	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI .....	91-93
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI .....	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR .....	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR .....	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI .....	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ .....	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА .....	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING .....	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS .....	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING .....	144-149

## MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI

**Abduvaliyeva Farida Salimjon qizi**

NamDU Maktabgacha ta'lim va tarbiya kafedrası,

3-kurs tayanch doktoranti

E-mail: [faridaabduvaliyeva57@gmail.com](mailto:faridaabduvaliyeva57@gmail.com)

ORCID: 0009-0000-01473254

**Annotatsiya.** Mazkur maqola multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi didaktik jihatlari o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sifatini oshirishdagi o'zni tahlil qilingan. Tadqiqotda multimedia vositalarining ko'rgazmalilik, interaktivlik, individuallashtirish va faollikni ta'minlashdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ularning o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ijobiy ta'siri asoslab berilgan. Natijalar multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** multimedia ta'lim didaktika interaktivlik ko'rgazmalilik axborot texnologiyalari o'quv jarayoni.

## DIDACTIC ASPECTS OF MULTIMEDIA IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Abduvaliyeva Farida Salimjon qizi**

Department of Preschool Education and Upbringing, NamSU

3rd year doctoral student

**Annotation.** This article is devoted to the study of the didactic aspects of multimedia tools in the educational process. The research analyzes the role of modern information and communication technologies in improving the quality of education. It examines the didactic possibilities of multimedia in ensuring visualization, interactivity, individualization, and learner activity. The study also substantiates their positive impact on knowledge acquisition and the development of creative thinking. The results show that the use of multimedia tools is an important factor in increasing the effectiveness of education.

**Keywords:** multimedia education didactics interactivity visualization information technologies learning process.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n26>

**Kirish.** Multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi didaktik jihatlari zamonaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Multimedia vositalari matn, grafik, audio, video va animatsiya kabi turli axborot shakllarini birlashtirib, o'quv materialini ko'pkanalli idrok etish imkonini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning bilimlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Didaktik jihatdan multimedia vositalari ta'lim mazmunini ko'rgazmali va tushunarli qilishga yordam beradi. Murakkab mavzularni vizual materiallar orqali ifodalash o'quvchilarda mavzuga nisbatan aniq tasavvur hosil qiladi. Bu jarayon abstrakt tushunchalarni konkretlashtiradi va o'quv materialining yodda qolish darajasini oshiradi. Shuningdek, multimedia vositalari ta'lim jarayonida faollik tamoyilini kuchaytiradi. O'quvchilar tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki interaktiv topshiriqlar, elektron testlar va virtual mashg'ulotlar orqali faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Multimedia vositalarining muhim didaktik jihatlardan biri individuallashtirilgan ta'limni ta'minlashidir. Har bir o'quvchi o'z imkoniyati va tezligiga mos ravishda materialni o'zlashtirishi mumkin. Bu esa o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etishga yordam beradi. [1; B.56.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (nazariy asoslar). Multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi didaktik jihatlari bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalish zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalari kesishmasida shakllangan muhim ilmiy soha hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan multimedia ta'limning samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida keng o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda Richard Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimedia o'qitish nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, o'quvchilar axborotni ikki yoki undan ortiq kanal orqali (vizual va audial) qabul qilganda, bilimlarni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi. Mayerning tadqiqotlari multimedia elementlarini ortiqcha yuklamasdan, didaktik maqsadga mos tanlash zarurligini ta'kidlaydi. [2; B.67.].

Shuningdek, Lev Vygotskyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi ham multimedia ta'limiga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, o'quvchi bilimni ijtimoiy muloqot va hamkorlik jarayonida o'zlashtiradi, bu esa interaktiv multimedia muhitida yanada samarali amalga oshadi. [3; B.97.].

Mahalliy olimlar, jumladan pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar multimedia vositalarining ta'limda ko'rgazmalilik, faollik va individuallashtirish tamoyillarini amalga oshirishdagi o'rnini chuqur tahlil qilganlar. Ularning ishlarida elektron darsliklar, animatsiyalar, video materiallar va interaktiv dasturlar o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirishi asoslab berilgan. [4; B.77.].

Adabiyotlar tahlilida yana bir muhim jihat sifatida Jerome Brunerning kashfiyotga asoslangan o'qitish nazariyasi qayd etiladi. Unga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor holda emas, balki faol izlanish orqali egallaganda, o'zlashtirish jarayoni samaraliroq bo'ladi. Bu yondashuv multimedia asosidagi interaktiv ta'lim bilan bevosita bog'liq.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu metodologiyaning ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarini maqsadga muvofiq tanlash, ularni didaktik tamoyillar asosida qo'llash va natijadorlikni baholashni o'z ichiga oladi. Metodologiyaning asosiy tamoyillaridan biri ko'rgazmalilik bo'lib, unda o'quv materiallari matn, tasvir, audio va video ko'rinishida taqdim etiladi. Bu o'quvchilarda mavzuga nisbatan aniq tasavvur hosil qiladi va abstrakt tushunchalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Ikkinchi muhim tamoyil faollikdir, bunda o'quvchilar interaktiv topshiriqlar, elektron testlar va multimedia mashg'ulotlari orqali ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. [5; B.57.].

Shuningdek, individuallashtirish tamoyili ham muhim o'rin tutadi. Multimedia vositalari har bir o'quvchining qobiliyati, tezligi va qiziqishiga mos ravishda bilim olish imkonini yaratadi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi. Tizimlilik va izchillik tamoyili esa o'quv materialining bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda berilishini ta'minlaydi.

Metodologiyada multimedia vositalaridan foydalanishning bosqichlari ham muhim ahamiyatga ega: [6; B.89.].

- Birinchi bosqichda o'quv maqsadlari aniqlanadi va mos multimedia resurslari tanlanadi.
- Ikkinchi bosqichda materiallar dars jarayoniga integratsiya qilinadi va interaktiv topshiriqlar ishlab chiqiladi.

- Uchinchi bosqichda esa o'quvchilarning bilim darajasi testlar, amaliy topshiriqlar va kuzatish orqali baholanadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish metodologiyasi shuningdek o'qituvchining pedagogik va texnik kompetensiyasiga ham bog'liq. O'qituvchi multimedia resurslarini to'g'ri tanlay olishi, ularni didaktik maqsadga moslashtirishi va o'quv jarayoniga samarali tatbiq etishi lozim.

### **Natijalar va muhokama**

Multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi didaktik jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari tajriba-sinov ishlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirokida maxsus metodika qo'llanildi va ularning nutqiy hamda bilish faolligi kuzatildi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, bolalarning 100 foizidan atigi 35–40 foizi rasm asosida erkin hikoya tuza olgan, 30 foizida so'z boyligi yetarli darajada rivojlanmagan, 25 foizida esa grammatik xatolar ko'p uchragan. [7; B.87.].

Tajriba jarayonida multimedia vositalari — animatsion videolar, audio ertaklar, interaktiv slaydlar va elektron o'yinlardan muntazam foydalanildi. Masalan, “ertakni davom ettir”, “rasm asosida hikoya tuz”, “ovozni eshitib so'zni top” kabi topshiriqlar orqali bolalar faol jalb etildi. Natijada 2 oy davomida o'tkazilgan mashg'ulotlardan so'ng bolalarning nutqiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, erkin hikoya tuza oladigan bolalar ulushi 70–75 foizga yetdi, so'z boyligi rivojlangan bolalar 30 foizdan 65 foizga oshdi, grammatik xatolar esa ikki barobarga kamaydi. [8; B.54.].

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari qo'llanilgan guruhlarda bolalarning darsga qiziqishi an'anaviy usullarga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. Masalan, animatsion materiallar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlarda bolalarning diqqat jamlanishi o'rtacha 10–12 daqiqadan 20–25 daqiqagacha uzaygani qayd etildi. Shuningdek, interaktiv topshiriqlar davomida bolalarning o'zaro muloqoti 2 barobarga oshganligi kuzatildi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, multimedia vositalarining samaradorligi bir necha omillarga bog'liq. Birinchidan, vizual va audial materiallarning uyg'unligi bolalarda idrokni kuchaytiradi va eslab qolish jarayonini tezlashtiradi. Ikkinchidan, interaktiv topshiriqlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Uchinchidan, o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan multimedia materiallari darsning didaktik maqsadiga erishishni osonlashtiradi. [9; B.63.].

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi didaktik jihatlari zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini samarali tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi, ularning diqqatini jamlash, mavzuni tushunish va eslab qolish jarayonini yengillashtiradi. Multimedia asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning faolligini oshirib, ularni ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida multimedia vositalarining nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli aniqlandi. Biroq ularni qo'llashda didaktik maqsadga muvofiqlik va me'yorni saqlash muhimligi ham ta'kidlandi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent, 1997.
3. Avliyoqulov N.X. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2010
5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2008.
6. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2009.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978. Piaget J. Psychology and Pedagogy. – New York, 1970.
8. Mayer R.E. Cognitive Theory of Multimedia Learning. – Cambridge, 2001.
9. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim jarayoni bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2022.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

**MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-aprel.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.